O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI



www.adti.uz

# ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

DAVOLASH

TIBBIY PEDAGOGIKA

TIBBIY PROFILAKTIKA

OLIY MA'LUMOTLI HAMSHIRALAR

PEDIATRIYA

FARMATSEVTIKA

STOMATOLOGIYA

DAVOLASH SAN‘ATI BARCHA SAN‘ATLAR ICHIDA ENG BUYUGIDIR

# REKTOR



**Madazimov Madamin Mo'minovich**

**Andijon davlat tibbiyot instituti rektori**
**Tibbiyot fanlari doktori, professor.**

*Andijon davlat tibbiyot institutiga xush kelibsiz!*

*Tarixi deyarli 70 yilga teng, vodiyda yagona bo'lgan oliy o'quv yurtida o'z kelajagini aholi salomatligini saqlash, turli xavfli xastaliklarning oldini olish va ularni davolash yo'llarini ishlab chiqish uchun bog'lagan yoshlar tahsil oladi.*

*Muassasada talabalarning to'laqonli bilim olishlari, tibbiyotning sir-asrorlarini o'rganishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Keng va yorug' xonalar, eng so'nggi rusumdagi zamonaviy tibbiyot anjomlari doimo talabalar ixtiyorida.*

*Ular o'qish davomida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliyotni ham birgalikda olib borish imkoniyatiga egalar. Bu esa institutni tamomlab, qisqa muddatlarda turli tibbiyot muassasalarida amaliyotga tez kirishib ketish imkoniyatini beradi.*

*Professor-o'qituvchilarning aksariyati xorijiy mamlakatlardagi fanlar akademiyalarining a'zolari hisoblanadi. Kelgusida qo'li yengil, malakali shifokor bo'lishni orzu qilgan yoshlarni Andijon davlat tibbiyot institutiga o'qishga taklif qilib qolamiz.*

*Siz ham talabalarimiz safidan joy oling va istiqbolda insonlar salomatligini asrashdek ulug' kasb egalari qatoriga qo'shiling.*

*Orzularingizni biz bilan birgalikda amalga oshiring!*



## *Andijon davlat tibbiyot instituti - istiqbolini insoniyat salomatligini saqlashga bag'ishlaganlar dargohi!*



*Farg'ona vodiysida yagona bo'lgan Andijon davlat tibbiyot instituti insonlar salomatligini saqlashda qalqon bo'lgan sharafli kasb egalarini yetkazib beruvchi oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tarixi 1955 yilning avgustiga borib taqaladigan ta'lim dargohi o'tgan yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida yuqori malakali mutaxassislarga zarur bilim-ko'nikmalarni berish bo'yicha bebaho va salmoqli tajribani to'play oldi.*

*Ayni paytda talabalarga tibbiyot sir-asrorlarini o'rgatishda bunday tajriba juda qo'l kelmoqda. Shu bois ham mazkur o'quv yurti oliy malakali shifokorlar tayyorlash bo'yicha respublikada alohida o'rin va mavqyega ega bo'lib turibdi.*

*Mustaqillik yillarida shu paytga qadar 12 700 dan ortiq yuqori malakali shifokorlar aynan Andijon davlat tibbiyot institutini tamomlab, aholi salomatligini saqlash yo'lida astoydil ter to'kib kelyapti. Institutda Davolash, Pediatriya, Stomatologiya, Vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, pediatriya ishi, kasb ta'limi, oliy hamshiralik ishi, tibbiy profilaktika kabi fakultetlar faoliyat ko'rsatmoqda.*



## *Xorijiy talabalarning ADTIda ta'lim olishi*

*Xorijiy talabalarning Andijon davlat tibbiyot institutida ta'lim olishi Xorijlik talabaning murojaati va hujjatlari bilan ishlovchi xalqaro aloqalar bo'limining elektron manzillari: agmi-361@umail.uz, marketingg@umail.uz, adtimarketing@mail.ru*

*Andijon davlat tibbiyot institutining bakalavr yo'nalishiga xorijiy talabalarning qabuli test sinovlarisiz, suhbat va reyting tizimi bo'yicha to'plangan ballar asosida o'tkaziladi. ADTI bakalavriat yo'nalishida tahsil olish uchun hujjatlar topshirgan chet ellik talabalar zarur ta'lim yo'nalishi bo'yicha, kasbiy moyillik hamda motivatsiya, umumiy intellektual va ma'naviy darajasini aniqlashga qaratilgan bilim darajasini yoritishga qaratilgan suhbatdan o'tadilar.*

*Chet ellik talabalar ta'lim olishi, xorijiy fuqarolarga taalluqli qonunlar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi: O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan xorijiy fuqarolar uchun bakalavriat yo'nalishida kontrakt miqdori 16 000 000 so'mni, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lmagan xorijlik fuqarolar uchun esa bakalavriat yo'nalishida tahsil olish uchun kontrakt miqdori 30 400 000 so'mni tashkil etadi.*

*O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan xorijlik fuqarolarga magistratura yo'nalishida tahsil olish uchun kontrakt miqdori 17 600 000 so'mni, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lmagan xorijiy fuqarolar uchun magistratura yo'nalishida tahsil olish uchun kontrakt miqdori 33 440 000 so'mni tashkil etadi.*

# INSTITUT MISSIYASI

***Bizning maqsad – xastalikni emas, bemorni davolovchi kadrlarni etkazib berish!***



* o'zining kasbi emas, balki hayot yo'li sifatida aynan tibbiyot sohasini tanlagan abituriyentlardan talabalarni saralab olish;
* talabalarni ularning iqtidori va layoqatiga qarab, tibbiyotning turli yo'nalishlariga jalb qilish;
* zamonaviy, ilg'or, innovatsion usullar, texnologiyalar, dars o'tish metodlari yordamida yosh shifokorlarda bilim, ko'nikma va malakani hosil qilish;
* xorijiy hamkorlar bilan birgalikdagi jahon tibbiyotida ro'y berayotgan so'nggi yutuqlar va kashfiyotlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning zamon bilan qadam-baqadam odimlashini ta'minlash;
* nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish. Nazariya amaliyotsiz bo'lmaydi, deganlaridek, ta'lim jarayoni davomida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda sinashi uchun barcha sharoitlar yaratish.

*Buyuk o'tmishdan buyuk kelajak sari*

## *Ta'lim sohasida yillar davomida sayqal topgan va to'plangan tajriba*




Andijon Davlat tibbiyot instituti 1955 yilda tashkil etilgan. Qariyb 70 yillik tarixga ega bo'lgan oliy o'quv yurti bu vaqt davomida ko'plab mutaxassis kadrlarni yetkazib berdi

1960 yilda 315 o'rinli 1-sonli, 1962 yilda 400 o'rinli 2-sonli, 1964 yilda 280 o'rinli 3-sonli, 1974 yilda 280 o'rinli 4-sonli, 1988 yilda 200 o'rinli 5-sonli talabalar turar joyi binolari, 1976 yilda sportzal binosi, 1989 yilda ma'muriy-xo'jalik binosi qurilib ishga tushirilgan.



# INSTITUT TARIXI

***Buyuk o'tmishdan buyuk kelajak sari***



Sobiq O'zbekiston ministrlar sovetining 1978 yil 22-apreldagi № 1469-sonli farmoyishi, 1983 yil 7-apreldagi 202-sonli farmoyishi hamda 1984 yil 8-avgustdagi № 352/16 -G qarori bilan institut binolarni qurilishiga 37 gektar er maydoni ajratilib 1984 yildan qurilish ishlari loyixasi ishlab chiqilgan.

1981-1991 yilgacha institutning kompleks qurilish bosh loyixasi tayyorlanib, 25 gektar yer maydonida qurilish ishlari boshlandi. Institut rektori M.A.Xo'jamberdiyev rahbarligida 1997-2000 yillarda bosh o'quv binosi va 2001 yilda ma'ruza zallari qurilish ishlari yakunlanib, 2,85 ga yer maydonida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib foydalanishga topshirildi. Shu tariqa talabalar ixtisoslashtirilgan, keng va yorug' xonalar, auditoriyalarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.






# SIMULATSION MARKAZ

*Ta'lim dargohida yangi tashkil etilgan simulyatsion o'quv markazi institut o'qituvchi-professorlari va talabalarida alohida faxr-iftixor tuyg'ularini yuzaga keltiradi. Institut talabalari o'z malakalarini aynan shunday jihozlarda yanada oshirish va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa har bir tibbiyot xodimini faqatgina simulyatsion treningdan o'tib, trenajyor, robot va simulyatorlarda tegishli testlarni topshirganidan keyingina bemorni davolashga qo'yishdir. Istiqbolda aynan Andijon davlat tibbiyot instituti negizida yagona simulyatsion o'quv markazini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Ushbu markazda nafaqat talabalar o'zining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashadi, balki butun Farg'ona vodiysidagi vrachlar hamda o'rta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish ko'zda tutilgan. Ular yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan robotlar, kardioxirurgiya va oftalmalogiya, neyroxirurgiya, LOR va endoskopik aralashuvlarning barcha turlari, reanimatsiya-anestizeologiya va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa o'z navbatida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan mas'uliyatning ortishiga olib kelishi shubhasizdir*









*Xalqaro fan olimpiadalari va Respublika tanlovi g'oliblari*



**G'aniyeva Umida**

2012-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati

**Zohidov Maqsad**

2010- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati





**Ziyayev Yahyo**

2011- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati

**Usmonova Mohinur**

2017- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati





**Adashaliyev Ahrorbek**

2013- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiatlari **14**

Ibn Sino Davlat stipendiatlari **23**

Islom Karimov Davlat stipendiatlari **2**

# IQTIDORLI TALABALAR

*Xalqaro fan olimpiadalari va Respublika tanlovlari g'oliblari*



**Rustamjonov Abdurashid Bahrom o`g'li**

2018- yil Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi sohibi

**Inomova Gulmira Qahramonjon qizi,**

2018 –yili "Islom Karimov" nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi





**O'rinboyeva Mehrinoz Oybekjon qizi,**

2018 –yil "O'zbekiston Respublikasi Vrachlar Assotsiatsiyasi" stipendiyasi sohibasi.

**Ahmadqulov Zoirjon Tohirjono'g'li**

2018-yil Patologik fiziologiya fanidan Respublika fan olimpiadasi g`olibi





**Yo'ldasheva E'zoza Karimjon qizi**

2018-yil Patologik Anatomiya fanidan Xalqaro fan olimpiadasi g'olibasi

O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi stipendiatlari **8**

Talabalar fan olimpiadasi g'oliblari **40**

## *Professor-o’qituvchilar*



**Xo’jamberdiyev Mamazoir Ahmedovich**
*professor, t.f.d.*



**Mamasoliyev Ne’matjon**
*professor, t.f.d.*



**Salohiddinov Zuhriddin Salohiddinovich**
*professor, t.f.d.*



**Tursunov Sayfiddin Yunusovich**
*professor, t.f.d.*



**Agronovskiy Mark Lezerovich**
*professor, t.f.d.*



**Nishonov Fozil Nishonovich**
*professor, t.f.d.*



**Arziqulov Abdurayim Shamshiyevich**
*professor, t.f.d.*



**Asronqulova Dilorom Baxtiyorovna**
*professor, t.f.d.*



**Hodjimatov G’ulomiddin Minhodjiyevich**
*professor, t.f.d.*



**Qodirov Shokirjon Qodirovich**
*professor, t.f.d.*



**Soliyev Qodir Karimovich**
*professor, t.f.d.*



**Xudoyberdiyev Qobil Tursunovich**
*professor, t.f.d.*

# INSTITUT FAXR-IFTIXORLARI



**Shodmonov Alisher Qayumovich**
*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, professor, t.f.d.*



**Rinat Sulaymonovich Akchurin**
*Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasi akademigi*



**Viktor Vasilyevich Maleyev**
*Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasi akademigi*



**Nazirov Feruz G'afurovich**
*Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazi direktori*



**Onesiya Saitova**
*O'zbekiston Qahramoni*



**Dadaboyev Alisher Ravshanbekovich**
*Dotsent, Michigan universiteti, AQSh*





**Oysha Qo'chqorova**
*O'zbekiston Qahramoni*



## *Abu Ali ibn Sino siymosini abadiylashtirish yo'lida*






*Andijon davlat tibbiyot institutida buyuk bobokalonlarimiz merosi, xususan, tib ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sinoning merosiga alohida e'tibor qaratiladi. Institutda butun dunyoda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan mutafakkir olimning byusti qad rostlab turibdi. Professor Yusuf Otabekovich Otabekovning sa'y-harakatlari va bevosita izlanishlari natijasi hisoblangan byust 1980 yili Ispaniyaning Barselona shahridada tibbiyot tarixchilari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro kongressda xorijiy davlatlarning olimlari o'rtasida katta qiziqishga sababchi bo'ldi. Bundan avval ibn Sinoning ko'plab siymolari yaratilgandi. Ammo ilmiy jihatdan asoslangan holda tiklangan byusti mavjud emasdi. Professor Yu. Otabekov, dotsent Sh. Hamidullin va haykaltorosh Ye. Skolova 15 yil davomida buyuk bobokalonimiz tashqi qiyofasi va tabiatining xususiyatlari tilga olingan materiallar, tarixiy-adabiy manbalarning barchasini sinchiklab o'rganib chiqishdi. Bobokalonimizning hayoti va ijodiy faoliyati chuqur tahlil qilindi. Buning natijasida Abu Ali ibn Sinoning byusti bugungi kunda ham talabalarni ulkan kashfiyotlar, ixtirolar va muvaffaqiyatlarga erishishga ilhomlantirib kelmoqda.*

# DIQQATGA SAZOVOR JOYLAR

***“Bog’i Bobur” istirohat bog’i***



***“Alisher Navoiy” istirohat bog’i***



***“O’zbegim” savdo-ko’ngilochar majmuasi***



***Z.M.Bobur maydoni***



# RAQAMLAR

**FAN DOKTORLARI, PROFESSORLAR**
**36**

**FAKULTET**
**7 ta**

**KAFEDRALAR**
**56 ta**

**FAN NOMZODLARI, DOTSENTLAR**
**137 ta**

**BITIRUVCHILAR**
**31004**

**PATENT**
**56 ta**

**TALABALAR**
**3670 NAFAR**

**KLINIK BAZA**
**19 ta**

**O'QUV VA O'QUV-USLUBIY QO'LLANMALAR**
**228 ta**

# ILMIY-TADQIQOT ISHLARI

## Professor-o'qituvchilar tarkibi:

| Fan doktorlari, professorlar | Fan nomzodlari, dotsentlar | Doktorant, mustaqil izlanuvchilar |
|---|---|---|
| 36 ta | 137 ta | 87 ta |

## So'nggi 3 yil davomida ilmiy ishlar nashri:

| Xalqaro ilmiy maqola | Respublika ilmiy jurnallarida maqolalar | Tezislar | Monografiya |
|---|---|---|---|
| 352 ta | 433 ta | 6782 ta | 28 ta |

| Darslik | O’quv va o’quv-uslubiy qo’llanmalar | Patent |
|---|---|---|
| 39 ta | 228 ta | 56 ta |

| Himoya PhD xodimlar | Himoya DSc xodimlar |
|---|---|
| 11 nafar | 3 nafar |



# O’QITISH USULLARI





# FAKULTETLAR

*Andijon davlat tibbiyot institutida ta'lim 7 ta fakultet, 56 ta kafedra, institut klinikasi va 19 ta klinik bazada olib boriladi. Har bir fakultetda talabalar tajribali professor-o'qituvchilar boshchiligida o'z yo'nalishiga mos bo'lgan ta'lim dasturlari, ilg'or texnologik uskunalar bilan jihozlangan xonalarda saboq olishadi. Siz ham talabalarimiz qatoridan joy oling va istiqbolda insonlar salomatligini asrashdek ulug' kasb egalari qatoriga qo'shiling.*






## *Xorijlik talabalar uchun ADTIda yaratilgan sharoitlar*



*Axborot-resurs markazi*



*Ko'rgazma zallari*



*Kompyuter o'quv xonasi*



*O'quv auditoriyalari*



*Sport majmuasi*




*Talabalar yotoqxonasi*

## HOZIRGACHA ADTIDA JAMI 109 NAFAR XORIJLIK TALABA TAHSIL OLGAN

# BUGUNGI KUNDA

**ROSSIYA**
16 nafar

**QIRG'IZISTON**
6 nafar

**XITOY**
3 nafar



**TOJIKISTON**
4 nafar

**AFG'ONISTON**
2 nafar



# XALQARO HAMKORLIK

**Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JIKA) vakillari bilan uchrashuv**




**Hindiston Respubikasining Sharda universiteti rahbari Kumar Gupta va Ashok Daryanilar**



**Professor Leah R. Vincent, Allergiya va yuqumli kasalliklar milliy instituti, AQSh**




**Janubiy Koreyaning Keimyung universiteti qoshidagi Dong-San tibbiy markazi professori Sung Il Nam**



# XALQARO HAMKORLIK

**Rossiya kardiologik ilmiy ishlab chiqarish kompleksi akademigi R.S.Akchurinning tashrifi**



**Hindistonning Dehli shahri "Eye Sight Foundation" tibbiyot markazi oftalmologiya bo'limi boshlig'i, professor Anindya Chakrabarty**



**Dotsent Alisher Dadabayevning tashrifi Michigan universiteti, AQSh**




**Germaniyaning O'zbekistondagi muxtor elchisi Gyunter Overfeld hamda O'zbekistondagi "SES" ekspertlar kompaniyasi va elchixona xodimlarining tashrifi**



# TALABALAR HAYOTIDAN



# ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI








**Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko‘chasi, 1-uy**

+998 74 223-94-57
+998 74 223-94-73
+998 74 223-94-50

**www.ADTI.uz**

**agmi-361@gmail.uz, marketingg@gmail.uz, adtimarketing@mail.ru**